



PAPER

## O‘ZBEKISTON VA ERON DAVLATLARINING MADANIY SOHADAGI HAMKORLIK ALOQALARI

Nazarov Bahodir Komilovich <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Oriental universiteti Samarqand kampusi

\* nazarov842@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik aloqalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va bugungi holati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ikki davlatni bog‘lab turuvchi tarixiy-madaniy ildizlar, umumiy sivilizatsion meros hamda madaniy diplomatiyaning o‘rni yoritiladi. Maqolada adabiyot, san‘at, ilm-fan, ta‘lim va madaniy almashinuvlar doirasidagi hamkorlik masalalari ko‘rib chiqilib, ularning ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, madaniy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari va rivojlanish omillari tahlil etiladi.

**Key words:** O‘zbekiston, Eron, madaniy hamkorlik, madaniy diplomatiya, tarixiy-madaniy aloqalar, madaniy meros, adabiy aloqalar, san‘at, ta‘lim, ilmiy hamkorlik.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda davlatlararo munosabatlar tizimida madaniy hamkorlik muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat nafaqat milliy o‘zlikni ifodalovchi omil, balki xalqlar va davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamjihatlik va barqaror muloqotni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, umumiy tarixiy-madaniy ildizlarga ega bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikning mustahkam poydevorini yaratadi hamda uzoq muddatli strategik sheriklikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi munosabatlar ana shunday chuqur

tarixiy va madaniy asosga ega bo‘lib, bu aloqalar ming yillar davomida shakllanib kelgan sivilizatsion yaqinlik bilan tavsiflanadi. Markaziy Osiyo va Eron hududi qadimdan yagona madaniy makon sifatida shakllangan bo‘lib, bu hududlarda yashagan xalqlar o‘zaro iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar orqali bir-birini boyitib kelgan. Xususan, adabiyot, san‘at, falsafa, tarixshunoslik va ilm-fan sohalarida yuzaga kelgan umumiy meros ikki xalq madaniyatining mushtarak jihatlarini yaqqol namoyon etadi.

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, buyuk mutafakkir va allomalar Firdavsiy, Rudakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning ilmiy va adabiy merosi Markaziy

Compiled on: February 2, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Osiyo va Eron xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarning mustahkam asosini tashkil etgan. Ushbu meros bugungi kunda ham ikki davlat o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Eron bilan madaniy aloqalar yangi tarixiy bosqichga ko'tarildi. Davlatlararo munosabatlarning rivojlanishi doirasida madaniyat, ta'lim, fan, san'at va madaniy almashinuv sohalarida qator muhim kelishuvlar amalga oshirildi. Madaniy diplomatiya vositasida ikki davlat o'rtasida o'zaro anglashuvni mustahkamlash, tarixiy merosni asrash va targ'ib qilish, shuningdek, zamonaviy madaniy jarayonlarda hamkorlikni kengaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ko'plab tarixiy-madaniy mushtarakliklarga ega bo'lgan ikki davlat – O'zbekiston va Eron madaniy aloqalari O'zbekiston mustaqillikka erishgan paytdan buyon o'tgan yillar davomida siyosiy va mafkuraviy sabablar tufayli unchalik darajada rivojlanishga erishmadi. Shunchalik darajadagi, Eronning Markaziy Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalarining eng past darajasi ham O'zbekiston bilan bo'lgan aloqalarda kuzatildi. Biroq bu ikki davlat umuman madaniy aloqalarga ega emas, degan ma'noni bildirmaydi. O'zbekiston 1991 yili mustaqillikka erishganidan boshlab boshqa qo'shni va mintaqa davlatlari qatorida Eron Islom Respublikasi bilan ham muvozanatlashtirilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga ega bo'lishga, shu orqali o'zining eng muhim ehtiyojlaridan biri bo'lmish eksport va import yuklarini tashish uchun transport-tranzit yo'laklariga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatini yaratishga harakat qildi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning SHHTning Samarqand sammitida so'zlagan nutqida sammitning ko'hna kentda nishonlanayotganligi bejiz emasligini uqtirgan holda “Samarqand qadim-qadimdan Sharqiy Osiyodan to Shimoliy Afrika, yaqin Sharq va Yevropagacha bo'lgan makonda yashaydigan xalqlar o'rtasida ma'naviy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy almashuvlarning markazi bo'lgan. Asrlar davomida bu yerda turli sivilizatsiyalar vakillari o'rtasida samarali muloqotning o'ziga xos madaniyati yaralgan” – deya ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, Samarqandning nafaqat O'zbekiston balki,

jahon tamadduni tarixida o'z o'rni bor. Ushbu hududda insoniyat rivojining qaysi davrini olmang turli xalqlar, millatlar, elatlar o'zaro tinch-totuv istiqomat qilganligiga tarix guvoh. Bugungi kunda ham Samarqandda turli millat vakillari hamjihatlikda yashamoqda. Buyuk ipak yo'lining Samarqand hududini kesib o'tganligi qadimdan xalqlarni iqtisodiy, madaniy va boshqa jihatlar bilan bog'lab turgan.

Samarqandda O'zbekistondagi eroniy etnografik guruhining asosiy qismi istiqomat qiladi va yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Samarqandda istiqomat qilayotgan eroniylar etnografik guruhining ilg'or ziyolilar qatlami O'zbekiston – Eron o'rtasida do'stlik aloqalarining rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston – Eron do'stlik jamiyati va uning Samarqand bo'limi ikki davlat o'rtasida madaniy, ilmiy, adabiy aloqalarning sermazmun ahamiyat kasb etishida faol rol o'ynamoqda. 2006-yil 3-noyabrda Toshkentdagi O'zbekiston Badiiy akademiyasining San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida “O'zbekiston – Eron madaniyat aloqalari. Isfahon madaniyati va mintaqalararo badiiy an'analar” mavzusida xalqaro ijodiy konferensiya bo'lib o'tgan. Ushbu anjumanda ta'kidlanganidek: “Millatlararo munosabatlar madaniyati, xalqlar do'stligi, ularning o'zaro yordami, qardoshlarcha hamkorligi tarixi baynalmilallik g'oyalarini targ'ib etishda katta yordam beradi, bu tarix ota-onalarimizning beg'arazligi, mehr-shafqati haqida eslatib turadi”.

O'zbekiston va Eron prezidentlari Shavkat Mirziyoyev va Sayid Ibrohim Raisiying bir yil ichida uch marta uchrashishi (ikki marta – 2021 yilning sentyabr va noyabr oylarida Dushanbe va Ashxobod shaharlarida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari hamda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari sammitlari doirasida, bir marta 2022 yil sentyabr oyida Raisiying O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida) 44 ikki davlatning o'zaro hamkorlik aloqalarida yangi davrni boshlashga bo'lgan siyosiy irodasini ko'rsatadi.

Bundan tashqari so'nggi o'n yilliklarda Eron tomonidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim sherik sifatida, jumladan, madaniy aloqalarni rivojlantirish sohasidagi roliga ko'proq urg'u berayotganligi kuzatilmoqda.

Jumladan eronlik ekspert Ja'far Haqpanoh shunday deb yozadi: «O'zbekiston Eron geomadaniyat va sivilizatsion makonida joylashganligi sababli o'ziga yaqin bo'lgan boshqa respublikalarga nisbatan «madaniy ota» rolini bajaradi. Tojiklarning eronliklarga madaniy bog'liqligi hamda yaqinligi va qarindoshligiga qaramasdan, o'zbeklar ularga nisbatan yorqinroq va muhimroq o'tmishga egadirlar».

Tomonlarning bunday irodasi, istagi va urinishlarining natijasi va samarasi o'laroq 2022 yilning 20-21 fevral kunlari Tehron shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiyaning o'n to'rtinchi majlisi doirasida ikki davlat o'rtasidagi ilk madaniy hamkorlik hujjati – O'zbekiston Respublikasi va Eron Islom Respublikasi hukumatlari o'rtasida Madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumini imzolandi.

Do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda tomonlarni ikki mamlakat jamiyati va madaniyati bilan tanishtirish maqsadida tuzilgan ushbu Anglashuv memorandumida ikki mamlakatda bo'lib o'tadigan madaniyat va san'atga oid tadbirlar va yig'ilishlarda ishtirok etish, madaniy meros, til va adabiyot hamda turizm sohalarida hamkorlik qilish, shuningdek, madaniyat sohasidagi hamkorlik bo'yicha qo'shma qo'mita tuzish ko'zda tutilgan. Eron Islom Respublikasi prezidenti Sayid Ibrohim Raisiyning Samarqand shahriga amalga oshirgan tashrifi chog'ida ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi quyidagi to'rt yangi hujjat imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Eron o'rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari ko'p asrlilik tarixiy-madaniy mushtaraklik, umumiy sivilizatsion ildizlar hamda o'zaro hurmat va manfaatlarga asoslangan holda izchil rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar adabiyot, san'at, ilm-fan, tarixiy merosni o'rganish va saqlash, shuningdek, madaniy almashinuv dasturlari orqali mustahkamlanmoqda. Madaniy hamkorlik doirasida o'tkazilayotgan qo'shma konferensiyalar, ko'rgazmalar, festival va ilmiy anjumanlar xalqlar o'rtasidagi o'zaro anglashuv va do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga

xizmat qilmoqda. Ayniqsa, buyuk mutafakkirlar va adabiy meros vakillarining ijodini birgalikda tadqiq etish, tarjima ishlari va madaniy-ma'rifiy loyihalar ikki tomonlama munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida O'zbekiston va Eron o'rtasidagi madaniy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, yoshlar va ijodkorlar o'rtasidagi almashinuvni kengaytirish, raqamli madaniy platformalardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, madaniy sohadagi hamkorlik ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlovchi muhim omil bo'lib, mintaqaviy barqarorlik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Ў.М. Ўзбекистон-Эрон маданий алоқалари ва уларнинг ривожланиши йўлидаги тўсиқларга бир назар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. December 2022 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). – Б. 1184.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқидан. Зарафшон газетаси. 107 (23.674). 2022 йил 15-сентябрь.
3. Алиева Ф, С.Шарипов. Ватан ягонадир, ватан биттадир. Илмий-оммабоп рисола. Т.: “Машҳур-пресс”, 2018. Б. 121-123.
4. Эрон ва Ўзбекистон Президентларининг учрашуви — икки давлат муносабатлари бурилиш нуқтаси ва ёруғ истиқбол белгисидир. ЎЗА. 18:42 / 12.09.2022 // <https://uza.uz/uz/posts/eron-va-ozbekiston-prezidentlarininguchrashuvi-ikki-davlat-munosabatlari-burilish-nuqtasi-va-yorug-istiqbol-belgisidir-406654>.
5. Ўзбекистон – Эрон муносабатларида янги давр. ЎЗА. 02:19 / 15.09.2022 // <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-eronmunosabatlarida-yangi-davr-407501>.